



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqarib boshlagan №23 (761), 2023-yil 7-dekabr

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AKSIYADORLIK JAMIYATI VA “NAVOIYURAN” DAVLAT KORXONASI JAMOALARIGA

Qadri vatandoshlar!

Siz, azizlarni Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil etilgan va yurtimizda uran sanoatiga asos solinganining 65 yilligi bilan chin qalbidan samimiy tabriklayman.

Sizlarning fidokorona mehnatingiz bilan bepoyon Qizilqum bag'ridan qazib olinayotgan, dunyo miqyosida yuksak e'tirof etilayotgan oltin, tabiiy uran va boshqa nodir qazilma boyliklar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda beqiyos strategik ahamiyatga ega ekani barchamizga yaxshi ma'lum.

Shu ma'noda, 40 dan ortiq millatga mansub qariyb 50 ming nafar yuqori malakali ishchi, muhandis va mutaxassislar mehnat qilayotgan mazkur kombinat va 3 yil oldin uning tarkibidan ajralib chiqqan "Navoiyuran" korxonasi milliy sanoatimiz faxri, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Keyingi yillarda soha rivojiga qaratilayotgan ulkan e'tibor hamda ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalar jadal joriy etilayotgani tufayli kombinat oltin ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi xorijiy kompaniyalar orasida 7-o'rindan 4-o'ringa ko'tarildi. "Muruntov" koni esa xalqaro reytinglarda yuqori pog'onalarni egallab kelmoqda.

Qisqa muddatda kombinatda 23 ta yirik investitsiya loyihasi, jumladan, 5, 6 va 7-gidrometallurgiya zavodlari, 2-gidrometallurgiya zavodining ikkinchi navbati ishga tushirilib, 15 mingdan ortiq yangi ish o'ri yaratilgani diqqatga sazovordir. Ana shunday sa'y-harakatlar natijasida bu yil oltin ishlab chiqarish hajmi 2016-yilga nisbatan 25 foiz, tabiiy uran 20 foiz, kumush esa 46 foizga oshganini alohida ta'kidlash lozim.

Bugungi kunda O'zbekiston uran qazib olish bo'yicha dunyoda 5-o'rinni egallab turibdi. "Navoiyuran" davlat korxonasi o'z mahsulotini yuz foiz eksportga yo'naltirmoqda.

Mahalliy lashtirish dasturi doirasida yangi quvvatlar uchun zarur asbob-uskuna va jihozlar hududning o'zida ishlab chiqarilmoqda. Birgina Navoiy mashinasozlik zavodida yilliga

o'rtacha 15 ming turdan ziyod import o'rini bosadigan mahsulotlar tayyorlanayotgani buni tasdiqlaydi.

Soha uchun malakali muhandis kadrlar yetkazib berish maqsadida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining moddiy-texnika bazasi va ilmiy-pedagogik salohiyatini mustahkamlamoqda. Murakkab texnologik jarayonlarni asosan ana shunday oliygohlarimizda ta'lim olgan azmu shijoatli yoshlarimiz boshqarayotgani barchamizni quvontiradi.

Ishchi va xizmatchilar mehnatini rag'batlantirish, ularning mehnat va dam olish sharoitlarini yaxshilash doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda. Ko'plab konchilarimiz Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanmoqda. Bugungi bayram munosabati bilan yana bir guruh soha vakillari faxriy unvon, orden va medallarga sazovor bo'ldilar. Ularni ana shunday yuksak mukofotlar bilan chin dildan tabriklab, kelgusi faoliyatlarida muvaffaqiyatlar tilayman.

Hurmatli do'stlar!

Biz "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida ushbu sohada ham ko'plab ishlarni amalga oshirishni reja qilganmiz. "Oqto'v" konini o'zlashtirish, ko'plab yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda uran qazib olish va qayta ishlash hajmini uch barobar ko'paytirish shular jumlasidandir.

O'z hayotini shunday muhim sohaga bag'ishlagan siz, azizlar jamoalarimizdagi shonli mehnat an'analari muno-sib davom ettirish, mamlakatimiz kon sanoati shuhratini yanada oshirish uchun bundan buyon ham katta kuch-g'ayrat bilan mehnat qilasizlar, deb ishonaman.

Sizlarni bugungi qutlug' ayyom bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga mustahkam sog'lik, oilaviy baxt, olijanob faoliyatingizda ulkan zafarlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

■ 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

Ma'lumki, "Konstitutsiya" so'zining ma'nosi lotincha "constitutio" – "belgilash", "tuzilish" kabi ma'nolarni anglatadi.

BOSH QOMUSIMIZ – KELAJAK POYDEVORI



Konstitutsiya har qanday davlatning Asosiy qonuni hisoblanib, davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolatlarini, fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini belgilab beradi.

Dunyodagi ilk Konstitutsiya 1789-yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida qabul qilingan.

1991-yil 31-avgust kuni "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan bo'lib, mazkur Qonunning 2-moddasida O'zbekiston Respublikasining xalqi suveren va u respublikada davlat hokimiyatining birdan-bir sohibi ekanligi, xalq o'z hokimiyatini ham bevosita, ham vakillik idoralari tizimi orqali amalga oshirishi belgilab o'tilgan.

Mazkur Qonun Asosiy Qomusimiz qabul qilingunga qadar mamlakatimiz uchun Konstitutsiya vazifasini bajargan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinishidan avval konstitutsiyaviy komissiya tomonidan uning loyihasi umumxalq muhokamasiga ilk marotaba e'lon qilinganda, 1992-yil sentabr-noyabr oylarida fuqarolar tomonidan 5 mingdan ortiq takliflar bildirilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, xalqimiz tomonidan mamlakatimizda Konstitutsiya qabul qilinishiga yuqori darajada tashabbus ko'rsatilgan.

1992-yil 8-dekabrda o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida mamlakatimiz Konstitutsiyasi qabul qilingan.

■ Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 65 yilligi



SHONLI BAYRAM SHUKUHI

Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil topganligining qutlug' 65 yilligiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish viloyatimiz markaziga o'zgacha ko'rk, aholisi, ayniqsa faoliyat dunyoga mashhur korxonalar bilan bog'langan insonlarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

Bayram shodiyonalari kombinatning barcha bo'limlari, Uchquduq, Zarafshon, Nurobod, Marjonbuloq shaharlari va Zarkent qo'rg'onida keng nishonlandi. Ulkan korxonaning 65 yilligiga bag'ishlangan asosiy tantanalari 17-noyabr kuni "Farhod" madaniyat saroyida bo'lib o'tdi. Shu kuni madaniyat saroyi kiraverishiga gillamlar to'shalib, maydon va muhtasham bino ko'rgazmali targ'ibot vositalari bilan bezatildi. Tadbir ishtirokchilari karnay-surnay sadolari ostida kutib olindilar. Madaniyat saroyining kirish qismi foyesida badiiy jamoalar, qo'l mehnati to'garaklari qatnashchilarining ijod namunalari ko'rgazmasi namoyish etildi.

Tantanalari yig'ilish boshlanib, madaniyat saroyi tomoshalar zali uzra O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangraganda barcha oyoqqa qalqdi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripovning korxonaning 65 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tabrigini o'qib eshittirishi tadbirning qismini foyesida badiiy jamoalar, qo'l mehnati to'garaklari qatnashchilarining ijod namunalari ko'rgazmasi namoyish etildi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati tashkil etilganining 65 yilligi munosabati bilan ishlab chiqarish ilg'orlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi Farmoni o'qib eshittirildi. Taqdirlanganlarga davlat mukofotlarini O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov tantanalari ravishda topshirdi. Mukofotlanganlar nomidan so'z olgan "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Markaziy kon boshqarmasi markaziy ta'mirlash-mexanika sexi boshlig'i Yuldash G'aniyev, "Navoiy kon-metallurgiya

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AKSIYADORLIK JAMIYATI TASHKIL ETILGANING 65 YILLIGI MUNOSABATI BILAN ISHLAB CHIQRISH ILG'ORLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimizning iqtisodiy qudratini yuksaltirish, kon-metallurgiya sanoatini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish, murakkab ish va iqlim sharoitlarida mineral boyliklarni samarali o'zlashtirish, tarmoqning barqaror ishlashini ta'minlash, jahon andozalariga mos yangi korxonalar tashkil etish borasidagi katta xizmatlari, ko'pmillatli mehnat jamoasida do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qo'shgan munosib hissasi uchun quyidagilar mukofotlansin:

“O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi” faxriy unvoni bilan

Ganiyev Yuldash Urinovich - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Markaziy kon boshqarmasi markaziy ta'mirlash-mexanika sexi boshlig'i

“Do'stlik” ordeni bilan

Ahadov Xayrulla Rofiyevich - "Navoiyuran" davlat korxonasi bosh geologi

Baxronov Farxod Shayimovich - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati bosh direktorining investitsiyalar va kapital qurilish bo'yicha o'rinbosari

Janaxmetov Serijan - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg'armasi" davlat muassasasining "Navoiy" hududiy boshqarmasi "Farhod" madaniyat saroyi yakkaxon xonandasi

Kuleshov Andrey Dmitriyevich - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Markaziy kon boshqarmasi "Muruntov"

koni burg'lash qurilmasi mashinisti
Pogosskaya Albina Rishatovna - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Zarafshon qurilish boshqarmasi 4-avto-korxonalar kran mashinisti
Sadinov Shuxrat Mardonovich - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati bosh marksheyderi
Turqanbayeva Guljamila Urazbayevna - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Shimoliy kon boshqarmasi 3-Gidrometallurgiya zavodi quyultirish, sanoat chiqindilarini zararsizlantirish va reagentlarni tayyorlash sexi katta ustasi
Soy Maya Vasilevna - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Shimoliy kon boshqarmasi byudjetlashtirish va kontroling bo'limi boshlig'i

“Shuhrat” medali bilan

Bekqulov Razzoq Ataqulovich - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Janubiy kon boshqarmasi "Zarmitan" koni lamichisi

Berdiyev Nuriddin Mamirzayevich - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Janubiy kon boshqarmasi "Marjonbuloq" koni oltin ajratish sexi muhandis-texnolog

Bobodostov Zafar Majidovich - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining "Navoiy mashinasozlik zavodi" ishlab chiqarish birlashmasi quymachilik sexi boshlig'i

Bo'riyev Nasrullo Safoqulovich - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Shimoliy kon boshqarmasi "Sharqiy" ochiq usul-

da qazib olish koni burg'lash qurilmasi mashinisti
Zakirov Askar Axmedjanovich - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Janubiy kon boshqarmasi 4-Gidrometallurgiya zavodi direktori

Irgashov Tulkin Yadgarovich - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining "1-Gidrometallurgiya zavodi" kon boshqarmasi 2-texnologik sexi apparatchisi

Karimova Feruza Baxmanzarovna - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Markaziy kon boshqarmasi "Aumino-Amantoy" koni texnologik laboratoriyasi kimyoviy tahlil laboranti

Muhammedov Mehridin Normurodovich - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Shimoliy kon boshqarmasi "Daugiztau" koni ekskavator mashinisti

Pulatov Vaxidjon Baxtiyrovich - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish boshqarmasi boshlig'i

Umarov Shodiyor Shuxratovich - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Shimoliy kon boshqarmasi Avtomobil transporti boshqarmasi dispetcheri

Usmonov Ixtiyor Normuhammadovich - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Markaziy kon boshqarmasi 5-Gidrometallurgiya zavodi ta'mirlash-chilangari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.MIRZIYOEV

Toshkent shahri,
2023-yil 16-noyabr

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 65 yilligi

SHONLI BAYRAM SHUKUHI

Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Tabrik so'zlari, hujjatli film namoyishi kuy-qo'shiqlarga ulanib ketdi. Respublikamizning taniqli san'atkorlari-O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artistlar Alisher Fayz, Sevvara Nazarxon, O'zbekiston xalq artisti Gulsanam Mamazoitova hamda "Farhod" madaniyat saroyi badiiy jamoalari tomonidan tayyorlangan konsert dasturi bayram tadbiri ishtirokchilarida zavq-shavq uyg'otdi.

Kombinatning shonli sanasiga bag'ishlangan shodiyonalar Navoiy shahridagi "Tinchiik" bazmoxonasida davom etdi. Chinakamiga bayramona ruhiyat hukmronlik qilgan davrada O'zbekiston tog'-kon sanoati vazirining birinchi o'rinbosari Omonulla Nasirdinxodiyev, "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ boshqaruvi raisi Abdul-la Xursanov, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisining o'rinbosari Abdulkhaim Hujibayev, O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi raisi Aleksandr Farmanov, xorijlik hamkorlarimiz – Ural kon-metallurgiya kompaniyasidan Sergey Yakor-nev, "Irgiremet" aksionerlik jamiyatidan Yevgeniy Pechenin, "BelAZ-xolding" ochiq aksiyadorlik jamiyatidan Vasily Shostak, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori Sherzodxon Qudratxo'ja, O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarix instituti direktori Azamat Ziyov, Samarqand viloyati "Zarafshon" gazetasi bosh muharriri Farmon Toshevlar Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasini korxonada tashkil topganligining 65 yilligi bilan qizg'in qutladilar. Shodiyonada Aleksandr Kasimovich Farmanov kombinatning besh nafar faxriysiga O'zbekiston Respublikasi

konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi tomonidan ta'sis etilgan "Faol faxriy" ko'krak nishonini topshirdi. Tantanada Navoiy kon-metallurgiya kombinati ishlab chiqarish va ijtimoiy faoliyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish, korxonada hayotiga oid kitoblarni chop etishda yaqin hamkorlik qilgan "Yangi O'zbekiston" gazetasi iqtisodiy sharhlovchisi Abdurauq Qorjavov, "Zarafshon" gazetasi bosh muharriri Farmon Toshev va "Sahhof" nashriyoti direktori Akbarali Mama-

soliyevalar uchinchi darajali "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar.

... Shuhratli korxonada tashkil topganligining shonli sanasi bayrami Qizilqum kengliklari uzra bir necha kun davom etdi. Kombinat erishayotgan yutuqlarga hamda istiqbolli investitsion loyihalarni ro'yobga chiqarishga munosib hissa qo'shayotgan Markaziy, Shimoliy, Janubiy kon boshqarmalarida bo'lib o'tgan tantanalarda ishlab chiqarish ilg'orlari rag'batlantirildilar. Zarafshon shahridagi "Oltin vo-



diy" madaniyat uyida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Dilfuza Rahimova, xonanda Bekmurod Jo'rayev, Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist Radjiv Atajanovlar, Uchquduq shahridagi "Uchquduq" madaniyat uyida xonandalar Axror Usmonov, Iroda Iskandarova, Karamiddin Xitjanovlar, Zarkent qo'rg'onidagi "Konchi" madaniyat va sport majmuasi o'yingohida xonandalar Yodgor Mirzajonov, Gulalal Abdullayevlar ijro etgan ko'y-qo'shiqlar barchaga manzur bo'ldi. Shuningdek, bayram sharafiga Zarafshon va Uchquduq shaharlarida bo'lib o'tgan avtoshoularda Markaziy va Shimoliy kon boshqarmalari og'ir yuk ko'taruvchi avtoag'dargichlari va boshqa konchilik texnikalarining ko'rgazmasi tashkil etildi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 65 yilligi sharafiga 18-noyabr, shanba kuni Navoiy shahri-

dagi "So'g'diyona" o'yingohida viloyatimiz markazi aholisi va mehmonlari uchun "Sharqoniy" vokal cholg'u ansambli, O'zbekiston Davlat filarmoniyasi Qoralpog'iston bo'linmasi san'atkorlari va O'zbekiston xalq artisti Gulsanam Mamazoitova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Sevvara Nazarxon ishtirokida katta konsert namoyish etildi. Bayram konserti rang-barang mushakbozlik bilan yakunlandi.

Xulosa o'rinda shuni aytish kerakki, kombinatning 65 yilligi korxonada bo'linmalari faoliyat ko'rsatayotgan hududlarda haqiqiy bayram, fidokorona mehnat samaralarini sarhisob qilish va yutuqlardan quvonib, shonli sanani munosib nishonlash shodiyonasiga aylandi.

Nizomiddin SADRIDDINOV.

Zarafshon vohasi tabiiy resurslarga boy. Bugungi zamonaviy ilmiy yondashuvlar, innovatsion yechimlar asosida tadqiqotlar olib borish va amaliy natijalarni ishlab chiqarishda qo'llash muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda, 2017-yildan buyon dunyo olimlari e'tibori mazkur hududga qaratilib kelinmoqda. Xususan, o'sha yili ilk bor "Zarafshon vohasini kompleks innovatsion rivojlantirish: yutuqlar, muammolar va istiqbollari" mavzusidagi konferensiya tashkil etilgan edi.

Joriy yilning 16-17-noyabr kunlari Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida Navoiy kon-metallurgiya

DUNYO OLIMLARI E'TIBORI

yana bir bor Zarafshon vohasiga qaratildi

kombinati tashkil etilganligining 65 yilligi munosabati bilan xalqaro konferensiya to'rtinchi bor o'tkazildi. Anjumanda Rossiya, Germaniya, Turkiya, Polsha, Meksika, Chili, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston kabi o'ndan ziyod mamlakatlarning yetakchi olimlari va xorijiy kompaniyalar vakillari ishtirok etdi. Konferensiyaning "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov kirish so'zi bilan boshlab berdi va O'zbekiston konchilik sanoati tarixi, Zarafshon vohasi taraqqiyotida kombinatning tutgan o'rni, bugungi kunda kombinat oldiga qo'yilgan ulkan maqsadlar, ilmiy faoliyat va erishilayotgan yutuqlar haqida gapirib o'tdi. Konferensiya ishini universitetning Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori To'liq Nurmurodov olib borar ekan, geologiya, foydali qazilmalarni qazib olish, qayta ishlash, kimyoviy texnologiya, mashinasozlik, energetika,

muqobil energiya manbalari, qishloq xo'jaligi va ekologiya sohalari bo'yicha 500 ga yaqin ilmiy maqola va tezislar kelib tushganligini ma'lum qildi. Shundan so'ng qator mahalliy va xorijiy olimlarning ma'ruzalari tinglandi. Yalpi majlisdan so'ng anjumani ishtirokchilari sho'balarga bo'lingan holda geologiya, foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash, kimyoviy texnologiyalar, mashinasozlik, energetika, muqobil energiya manbalari va istiqbollari, qishloq xo'jaligi, ekologiya kabi tarmoq va sohalar faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy ma'ruzalar qilishdi.

Aleksandr SLADKOVSKIY, Polshaning Sileziya texnologiya universiteti professori:

— Bizning universitet xorijiy talabalarni qabul qilishga katta e'tibor qaratadi. Xususan, O'zbekistondan ham ko'plab talabalar bizda tahsil oladi. Konferensiya doira-

sida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti rahbariyati bilan konchilik sohasida hamkorlikda kadrlar tayyorlash masalalariga kelishib olindi. Bunda mazkur universitet bilan logistika sohasida ta'lim berish yo'nalishida o'zaro aloqalarni o'rnatish ko'zda tutilmoqda. Qizilqum regionidagi mahalliy yoshlar Polshada ta'lim olsa, demak, ular dissertatsiyalarini ham u yerda himoya qilishadi Ilmiy dalillar asosida amaliy takliflar beriladi. Bu, Qizilqum hududi taraqqiyotiga ham xizmat qiladi.

Narzulla OBLOMURODOV, Toshkent Moliya instituti prorektori:

— Navoiy kon-metallurgiya kombinati tizimida qator istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Mazkur konferensiya ham dunyo tajribasini o'rgangan holda yurtimiz olimlari va xorijiy ekspertlar hamkorligida Zarafshon vohasini kompleks innovatsion



rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek, korxonalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun bu yo'nalishlarda bir qator

takliflar ilgari surildi. Bu esa "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda o'z samarasini beradi, albatta.

NDKTU Axborot xizmati.

Bu kitob hamkasblarimiz hayoti, faoliyati, yutuqlari haqida jurnalistik mahorat bilan yozilgan. Matbaa-noshirlik talabi, dizayn-bezaklanish jihatdan sifatli tayyorlangan va chop etilgan. Kitob kombinat jamoasi faoliyatiga qiziqadiganlar uchun ko'plab ma'lumotlar olish manbasi bo'ladi. Bu, asarni o'qigan ko'pchilik yurtdoshlarimizning e'tirofi. Yaqinda "NKMK" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov ishtirokida kitob taqdimoti bo'lib o'tdi.

"Mehnatidan QADR TOPGANLAR"

Kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi

Kitob yozish, chop etish kombinatda shakllangan yaxshi an'anadir. "Mehnatidan qadr topganlar", "Uyg'oq xotirlar", "Kengliklar sururi", "Zomin ilhomlari" to'plamlari, "NKMK: taraqqiyotning yangi bosqichida" kitob-albomi, "Noveyshaya istoriya Navoiyskogo gorno-metallurgicheskogo kombinata", "Istoriya sozdaniya i razvitiya uranovoy otrasli Uzbekistana", Nurmat Jo'libekovning "Finansovoe-ekonomicheskoye aspekti funkcionirovaniya Navoiyskogo GMK na raznyx etapax razvitiya" va "Kon-metallurgiya sanoati korxonalarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish" kitoblari, avtobiografik esse janrida Nurmat Jo'libekovning "Umr dovonlari", Isroil Rahmatovning "Hayot chorrahalarida", Ochil Yuqubovning "Yillar mening taqdirimda", Ulug'bek Ergashevning "Umr solnomasi" va boshqa kitoblari shular jumlasidandir.

Kombinatimizning 65 yilligi munosabati bilan tijrabali jurnalist N.Sadriiddinov muallifligi va to'plovchiligida "Mehnatidan qadr topganlar" kitobi chop etildi. Undan kombinat rahbari yetuk mutaxassislari, mehnat faxriylari, shijoatli yoshlarining faoliyati, bugungi kunda korxonada ro'y berayotgan yangilanishlar haqidagi publististik maqolalar o'rin olgan. Ular o'quvchilar e'tiborini tortadi hamda kitobxonlarning ulkan korxonada istiqbollari haqidagi tasavvurlarini yangi ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi, deb o'ylayman.

Kitobda o'tgan davrda amalga oshirilgan keng ko'lamiy bunyodkorlik ishlari, minglab insonlarning fidokorona mehnatlari, faoliyat dovonlari o'z

aksini topgan. Kitobni diqqat bilan o'qib chiqdim. Qahramonlar taqdiri, matonati va irodasi, hayratli olamini kashf etdim. Qahramonlar erishgan yutuqlari va imkoniyatlarni dildan his qildim. Bu kitobni o'qiganim men uchun izlanish va o'rganish orqali malakamni oshirish vositasiga aylandi.

Kitobda kombinat ravnaqi, respublikamiz iqtisodiy rivojlanishiga munosib hissa qo'shib, mehnatidan qadr topgan qahramonlarni uchratasiz. Besh bobdan iborat kitobning har bir bobida kombinatning bosqichma-bosqich rivojlanish yo'lida fidoyilarcha faoliyat olib borgan oddiy ishchi-xizmatchidan tortib, rahbar-muhandisgacha barcha insonlarning hayotiy qarashlari, fikr-mulohazalari ifodalanganiga guvoh bo'lasiz. Ular haqidagi publististik maqolalarda kasbga munosabat, mas'uliyat, qat'iy intizom, ilmfan yutuqlari, eng asosiysi, kombinatda inson qadri yuksakligi o'z ifodasini topgan. Bu kitob beixtiyor o'quvchini ishlab chiqarish sanoati olamiga, insonlarning ovozi eshitilib, qiyofasi yaqqol ko'rinib turgan, ularning ichki dunyosini ko'zga yotay aks ettirgan tarix olamiga yetaklaydi.

Kitobning "Kombinat kelajagi ishonchli qo'llarda" deb nomlangan bobida yangi zavodlar, konlar, kombinat va kon boshqarmalarining bo'linma va uchashtalarini ishonch bilan boshqarib kelayotgan olovqab yoshlar, shijoatli yigitlar faoliyati yoritilgan. Kitob qahramonlari bo'lgan yosh mutaxassislarining aksariyati Toshkent davlat texnika universiteti, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetini tamomlab, hayotda o'z intilishlari va iroda kuchi bilan



muvaffaqiyatga erishib kelmoqda. Ularning azmu shijoati, orzu-umidlari, ustozlaridan olgan o'g'itlarini o'zidan keyingi avlod vakillariga yetkazish mas'uliyati haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Yoshlarning hayotiy qoidalari o'quvchini yangi g'oyalari haqida o'ylashga undaydi, ularni amalga oshirish uchun yangi shijoat beradi. Kitobning "Faxriylar-faxrimiz" bobida boy tajriba va ko'p yillik ish amaliyotiga ega, butun umrini kombinat rivoji yo'lida baxshida qilgan, maslakdoshlariga o'rnav bo'lari darajada fidoyilik ko'rsatgan mehnat faxriylarining faoliyati haqida hikoya qilinadi. Ulug' ustozlarning yo'lini munosib davom ettirishga intilayotgan yoshlar uchun bu ibrat namunasidir.

Xotira – barhayot. Tarixni unutib bo'lmaydi. O'tmishni bilish, bor haqiqati va mohiyati bilan uni anglab, yodda saqlash zarur. Bu jihatdan kitobning "Xotira-muqaddas" bobi alohida ahamiyatlidir. Taqdimotda joylarda kitob qahramonlari bilan yoshlarning uchrashuvlarini tashkil etish ulami mehnatsevarlik, kombinat tarixiga hurmat ruhida tarbiyalash, korxonada amalga oshirilayotgan ulkan yaratuvchanlik ishlariga daxldorlik tuyg'ularini kuchaytirishga xizmat qilishi haqida fikrlar bildirildi. H.Sharipov, B.Bo'ronov, Ye.Arapbayev kabi mehnat faxriylari ularga ko'rsatilayotgan e'tibor uchun kombinat rahbariyati, shaxsan Q.Sanaqulovga minnatdorlik izhor etdilar.

Dildora KARIMOVA, "NKMK" AJ Matbuot xizmati xodimi.

KOMBINATDA "OCHIQ ESHIKLAR KUNI"

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida ishchi-xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish maqsadida joriy yilning noyabr-dekabr oylarida "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" o'tkazilmoqda.

Mazkur oylik doirasida 22-noyabr kuni Navoiy shahridagi "NKMK tarixi" muzeyida korxonada ishchi-xodimlari uchun 9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni haqida "Ochiq eshiklar kuni" tadbiri o'tkazildi.

Navoiy ixtisoslashtirilgan prokuraturasi, viloyat Adliya va Monopoliyaga qarshi kurashish boshqarmalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbir "NKMK" AJ Komplayens xizmati boshlig'i o'rinbosari B.Toshev, Navoiy ixtisoslashtirilgan prokuratori Sh.G'af-forov, Adliya boshqarmasi bo'lim boshlig'i D.Kattayeva va Monopoliyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari M.El-murodovlarning mavzuga oid ma'ruzalari tinglandi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil topganiga 65 yil to'ldi. Bugungi kunda korxonada 40 dan ortiq millatga mansub qariyb 50 ming nafar yuqori malakali ishchi, muhandis va mutaxassislar mehnat qilishmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda konchilik va metallurgiya sohasi rivojiga qaratilayotgan e'tibor hamda ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalar jadal joriy etilayotgan tufayli kombinat oltin ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi xorijiy kompaniyalar orasida 7-o'rindan 4-o'ringa ko'tarildi. Qator yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida 2023-yilda oltin ishlab chiqarish hajmi 2016-yilga nisbatan 25 foiz, kumush esa 46 foizga oshadi.

Kombinat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyon harakatlarni oldini olish va bartaraf etishga katta e'tibor qaratilayapti. Jumladan, 2021-yilda korxonada tizimida Komplayens xizmati tashkil etildi. Komplayens xizmatining asosiy vazifalari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish va ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlab, bartaraf etish choralarini ko'rish, ishchi-xodimlar uchun huquqiy targ'ibot va profilaktik tadbirlar o'tkazish, xaridlar sohasini nazorat qilish, o'rganish va xizmat tekshiruvlarini o'tkazish, xalqaro sertifikatlarni olish hamda xodimlarning malakasini oshirishdan iboratdir. Komplayens xizmati tomonidan raqobat talablarining buzilish xavflarini kamaytirish, kombinat bo'linmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash, korxonada ochiqlik darajasini yanada oshirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, tadbir ishtirokchilariga mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati, olib borilayotgan ishlar, korrupsiya uchun javobgarlik masalalari, uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar hamda mazkur yo'nalishdagi xorijiy tajribalar atroflicha tushuntirildi.

Tadbir yakunida kombinat ishchi-xodimlarining savollariga batafsil javoblar berildi.

"NKMK" AJ matbuot xizmati.

■ 8 dekabr – День принятия Конституции Республики Узбекистан

30 апреля 2023 года путём всенародного голосования на референдуме принята новая редакция Конституции Республики Узбекистан, которая является прочной основой строительства Нового Узбекистана. В целом, Конституция изменена более чем на 65 процентов.

ПРАВА ЧЕЛОВЕКА
— ВЫСШАЯ ЦЕЛЬ
ГОСУДАРСТВА

В ходе формирования норм Конституции в новой редакции изучены и проанализированы свыше 220 тысяч предложений, поступивших от граждан и организаций. Изменения, внесённые в Конституцию, направлены на реализацию принципа «человек-общество-государство», где приоритетное место отводится личности, её правам и свободам. За изменение Основного закона проголосовали 90,2 процента избирателей. Это ещё раз подтверждает, что подлинным его автором является народ.

Обновлённые конституционно-правовые условия обуславливают необходимость дальнейшего совершенствования основных векторов развития государства и общества. В связи с этим приняты Стратегия «Узбекистан-2030», указы Президента «О первоочередных мерах по реализации Конституции Республики Узбекистан в новой редакции» от 8 мая 2023 года, «О внесении изменений и дополнений в некоторые акты Президента Республики Узбекистан в связи с принятием Конституции Республики Узбекистан в новой редакции» от 7 ноября 2023 года, ряд других документов, которые направлены на обеспечение прав и свобод граждан, верховенство закона, укрепление экономики и безопасности.

Преамбула Конституции нашей страны начинается со слов «Мы, единый народ Узбекистана...», что подчёркивает солидарность всего многонационального народа к проводимым в республике реформам, принимаемую ответственность перед будущими поколениями.

В обновлённой Конституции Узбекистан провозглашается суверенным, демократическим, правовым, социальным и светским государством с республиканской формой правления. Государство служит интересам народа, выражает его волю.

В Основном законе особое внимание уделено гарантиям защиты прав и интересов практически всех категорий населения, среди которых молодёжь, женщины, лица с ограниченными возможностями, лица, попавшие в орбиту уголовного судопроизводства и т.д. В этом плане в ст.54 Конституции определено, что обеспечение прав и свобод человека – высшая цель государства.

В нормах Основного закона закреплены принципы института Хабеас корпус, Правила Миранды, презумпции невиновности, усилены гарантии адвокатской деятельности, направленные на обеспечение прав личности в судебной-правовой сфере.

Принятие Конституции в новой редакции – выдающееся событие в истории нашей страны. В соответствии с распоряжением Президента нашей республики от 16 ноября 2023 года утверждена Программа по подготовке и проведению праздничных мероприятий, посвящённых Дню Конституции Республики Узбекистан. Программой предусмотрены организационно-практические и духовно-просветительские мероприятия, воплощающие идею «Конституция – основа подлинно народного государства, стабильного развития и процветающей жизни!». В их числе организация в районных и городских центрах «улиц Конституции»; проведение конкурса среди журналистов и блогеров «Лучший пост и статья, разъясняющие нормы Конституции»; издание Конституции в новой редакции шрифтом Брайля; организация выставки архивных документов, посвящённых истории создания Конституции; проведение в государственных организациях массового общереспубликанского диалогического мероприятия на тему «Моя Конституция и государственный язык» под девизом «Моей Конституции – 31 год»; организация среди учащихся школ конкурса рисунков и сочинений на темы «Конституция народа», «Конституция – свет моего будущего» и др.

Достоинство встречи Дня Конституции страны будет способствовать сплочению граждан, утверждению идей демократии, свободы и равенства, социальной справедливости и единства

Саёра САИДРАХМАНОВА,
старший эксперт-криминалист ОВД НГМК
УВД Навоийской области, подполковник.

■ Хабар

AMALIY MASHG'ULOTLAR
O'TKAZILMOQDA

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-mayda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan qator ishlar amalga oshirilmog‘da.

Zilzila va uning oqibatlariga oid mavzu asosida soha mutaxassislari, rahbar xodimlar, ishchi va xizmatchilarning favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga o‘qitish, ularning bu boradagi malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratilmog‘da. Jumladan, joriy yil boshidan buyon O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi institutida 9 nafar, Navoiy viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Hayot xavfsizligini o‘qitish markazida 30 soatlik dastur asosida toifalangan obyektlarning navbatchi dispetcherlari bilan fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarida 10 nafar mutaxassis o‘qitildi. Respublikamizda o‘tkazilayotgan “Chorshanba – favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong‘inlar profilaktikasi kuni”da bo‘linmalarning favqulodda vaziyatlar xizmati xodimlari mavzuga oid o‘quv-uslubiy vositalardan keng foydalanishyapti.

Shuningdek, aksiyadorlik jamiyati tarkibiy bo‘linmalarida fuqaro muhofazasi tuzilmalarining qutqaruv va aloqa xizmatlari, sanitar postlari, yong‘in o‘chirish zvenosi xodimlari favqulodda vaziyatlarda kombinat kuch va vositalarining harakatlanishi bo‘yicha amaliy maxsus-taktik mashg‘ulotlarni tashkil etmoqdalar.

Shuhrat BOLTAYEV,
“NKMK” AJ favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i.

■ Qutlug‘ sana

FIDOKORONA MEHNATNING MUNOSIB E'TIROFI

Navoiy mashinasozlik zavodi Navoiy kon-metallurgiya kombinatining yirik bo‘linmalaridan bo‘lib, mahalliyashtirilgan, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha respublikamizning eng ilg‘or korxonasi hisoblanadi. Zavodda har yili o‘rtacha 1,2 trillion so‘mlik mahalliyashtirilgan va import o‘rnini bosuvchi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilmog‘da.

So‘nggi yillar zavod uchun, ayniqsa, yuk-salish davri bo‘layapti. Metall quyishdan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan yaxlit tizim yo‘lga qo‘yilishi tufayli zavod ulkan korxonaga, ishlab chiqarish klasteriga aylandi. Korxonada bo‘lgan o‘nta asosiy sex, 2 ta uchastka, 3 ta laboratoriya, texnologik, konstruktorlik bo‘limlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi Taxiotosh metallkonstruksiyalar va nstandart jihozlar ishlab chiqarish, Surxondaryo viloyati Termiz mexanika zavodlari jamoalari yuksak ish maromini ta‘minlab, mamlakatimiz iqtisodiyotiga munosib hissa qo‘shmoqdalar.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromnonov Mirziyoyev Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil topganligining 65 yillik yubileyi munosabati bilan jamoaga tabrik yo‘lladi. Jumladan, Yurtboshimiz tabrigidagi “Mahalliyashtirish dasturi doirasida yangi quvvatlar uchun zarur asbob-uskuna va jihozlar hududning o‘zida ishlab chiqarilmog‘da. Birgina Navoiy mashinasozlik zavodida yiliga o‘rtacha 15 ming turdan ziyod import o‘rnini bosadigan mahsulotlar tayyorlanayotgani buni tasdiqlaydi”, - degan so‘zlar mashinasozlar mehnatiga berilgan munosib bahodir.



Darvoqe, bunday deyshimizga to‘la asos bor. Zavodda mahalliyashtirish dasturi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar diqqatga sazovordir. Buning natijasida so‘nggi yillarda sharli tegirmonlar, gidrosiklon qurilmalar, texnologik quyultirgichlar, zamonaviy metall kesish dastgohlari, reduktorlar, nasoslar, burg‘ilash uskunalari uchun ehtiyot qismlar, ekskavatorlarga kovshlar, g‘alvirlar va boshqa yuzlab turdagi import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni o‘zlashtirishga erishildi. Yaqin yillargacha gidrometallurgiya zavodlari uchun keng hajmdagi sharli tegirmonlar chetdan,

valuta hisobiga olib kelinardi. Oltin saralash zavodlari uchun zarur mazkur uskuna mahalliyashtirilib, korxonada mutaxassislarining sa‘y-harakatlari bilan uni bevosita zavodda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Hajmi 140 kubometr bo‘lgan sharli tegirmonni chetdan xarid qilish narxi 6 million dollarga teng. Zavodda esa bu mahsulot teng yarim narxida ishlab chiqarilmog‘da. 2019 yilda 2-gidrome-



tallurgiya zavodiga yetkazib berilgan tegirmondan 2,5 million dollardan ortiq valuta iqtisod qilindi. 7-gidrometallurgiya zavodi qurilishida qo‘llanilgan asosiy texnologik uskunalari, turli dastgohlar, butlovchi materiallar, sharli tegirmonlar xorijdan olinmasdan Navoiy mashinasozlik zavodida tayyorlanganligi evaziga katta mablag‘ tejab qolindi. Joriy yilda foydalanishga topshirilgan 6-gidrometallurgiya zavodi uchun deyarli barcha asbob-uskunalar mazkur korxonada tayyorlandi.

Joriy yilda umumiy qiymati 25,1 million dollar bo‘lgan ikkita loyiha ishga tushirildi. Investitsion loyiha asosida mexanika-yig‘uv uchastkasi, quyumachilik sexida esa 25 tonnalik zamonaviy pech ishga tushirildi. Natijada og‘irligi 980 tonnagacha bo‘lgan tegirmonlar, yanchish uskunalari, quyultirgichlar ishlab chiqarish va ularni ta‘mirlash, og‘irligi 400 tonnagacha bo‘lgan yirik o‘lchamdagi jihozlarga ishlov berish imkoniyati paydo bo‘ldi. Zamonaviy pech metall eritish quvvatini 30 foizgacha, ya‘ni 30 ming tonnadan 40 ming tonnagacha oshiradi.

O‘tgan shanba kuni zavod hududi chinakamiga bayram tusini oldi. Zavod ishchi-xizmatchilari, muhandis-texnik xodimlari, faxriylar va mehmonlar korxonada tashkil topganining 60 yilligini nishonladi. Garchand qish fasli boshlangan bo‘lsada, quyosh kun bo‘yi charaqlab turdi. Zavodga kiraverishdagi maydonda kamay-surnay sadolari yangrab,



barchani bayram shodiyonalariga chorladi. Korxonada o‘yngohiga boriladigan yo‘lak bo‘ylab zavod sex va uchastkalari mahsulotlari-



ning ko‘rgazmasi tashkil etildi. Undan mehnat jamoalari faoliyati aks ettirilgan peshlavhalar, ishchi-xodimlar va ularning farzandlari tomonidan tayyorlangan robototexnika namunalari o‘rin oldi.

Zavod yubileyiga har tomonlama puxta hozirlik ko‘rilganligi yaqqol namoyon bo‘lib turdi. Bir tomonda Toshkentdek shahri azimdan taklif etilgan oshpazlar o‘ndan ortiq qozonlarda palov tayyorlashayotgan bo‘lsa, boshqa tomonda dorbozlar o‘z mahoratlarini namoyish etishar, uchinchi tomonda sport bellashuvlari, “Zakovat” intellektual o‘yini qizg‘in davom etardi. Zavod ishchi-xodimlari, ularning oila a‘zolari, mehmonlar to‘kin-sochin dasturxon atrofini to‘ldirishdi. Tantana ishtirokchilariga navbatma-navbat osh tortildi. Katta monitorida Navoiy mashinasozlik zavodi jamoasining bugungi faoliyati haqida hikoya qiluvchi videorolik aylanitirib turildi. “Farhod”, “Oltin vodi” va “Uchquduq” madaniyat saroylari, shuningdek zavod badiiy havaskorlarining kuy va qo‘shiqdagi bayram ishtirokchilariga yaxshi kayfiyat ulashdi.

Navoiy mashinasozlik zavodi direktori J. Hayitov barchani korxonada tashkil topganligining 60 yillik sanasi munosabati bilan qizg‘in muborakkob etdi. Samimiy tabrik so‘zlari san’atkorlarning ko‘ngillarga manzur qo‘shiq-lariga ulanib ketdi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati xodimlari kasaba uyushma Kengashining raisi

I.Rahmatov zavod jamoasini qutlug‘ sana bilan tabrikledi. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ bosh muhandisi A.Ravshanov, NKMK xodimlari kasaba uyushma Kengashining raisi I.Rahmatovlar zavodning tajribali mutaxassislari, ishlab chiqarish ilg‘orlaridan bir guruhiga turli darajadagi “Konchilik shuhrati” ko‘krak nishonlari, “NKMK faxriysi” unvoni, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining faxriy yorliqlarini tantanali ravishda topshirdilar. Asbobsozlik sexi boshlig‘i Vladimir Mastuygin, zavod bosh mexanigi Abdurasul Dumuradov, tokari Ravshan Shodmanov, stanoksozlik sexi servis xizmati ta‘mirlash bo‘yicha ikkinchi toifali muhandisi O‘ktam Kazakov, zavod bosh konstruktori o‘rinbosari To‘lqin Turdinov, mexanik-yig‘uv sexi yirik gabititli detallarga ishlov berish uchastkasi frezalovchisi Server Bekirov, quyumachilik sexi qoliplash uchastkasi mashinada qoliplash qoliplovchisi Murodul-lax Vaxobov, Termiz mexanika zavodi direktori Olimjon Mengliyev, temirchilik-presslash sexi asbob-uskunalarini tayyorlash guruhi 1-toifali muhandis-texnologiy Ogul Urunova va boshqalar mukofotlandilar.

Bayram shodiyonalari nishonlangan kunda Navoiy mashinasozlik zavodining 60 yilligi munosabati bilan sportning futbol, voleybol, shaxmat, stol tennis turlari bo‘yicha uch kun davom etgan “NMZ kubogi” musobaqasining g‘olib va sovrindorlari e‘lon qilinib, ularga mukofotlar topshirildi. Futbol bo‘yicha Shimoliy kon boshqarmasi g‘oliblikni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, “Qizilqum” kon boshqarmasi va Navoiy mashinasozlik zavodining jamoalari ikkinchi, uchinchi o‘rinlar nasib etdi. Voleybol bo‘yicha Navoiy mashinasozlik zavodi, “Qizilqum” kon boshqarmasi, Shimoliy kon boshqarmasi jamoalari sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritishdi. Shaxmat bo‘yicha erkaklar o‘rtasida “Qizilqum” kon boshqarmasi, ayollar o‘rtasida “Qizilqum” kon boshqarmasi, A‘lo Hasanov, ayollar o‘rtasida mazkur boshqarmadan Ozoda Yo‘ldosheva, stol tennis bo‘yicha erkaklar o‘rtasida “NKMK jamg‘armasi” DM va kili Doston Muhammadiyev, ayollar o‘rtasida Navoiy mashinasozlik zavodidan Lobar Toyirovalar g‘oliblikka erishdilar.

Navoiy mashinasozlik zavodining 60 yilligiga bag‘ishlangan bayram tantanalari shodu xurramilik, kuy va qo‘shiqdagi bilan kechgacha davom etdi.

Nizomiddin SADRIDDINOV.

■ Dolzarb mavzu

TABIATNI MUHOFAZA QILISH — MUHIM VAZIFA

Fan-texnika taraqqiyoti insoniyatning ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiatning yangi, o‘rganilmagan boyliklarini izlab topishga, ularni o‘zlashtirish imkoniyatlarini tadqiq etishga va tabiiy boyliklardan keng miqyosda foydalanishga imkoniyat yaratdi. Shu bilan bir qatorda, sanoat korxonalaridagi barcha jarayonlarning texnikalashgani, xalq xo‘jaligining turli sohalarida kimyoviy moddalarning ishlatilishi, avtomobil transportining tez rivoji ko‘p miqdorda zaharli chiqindilarning paydo bo‘lishiga hamda atrof-muhitga tashlanishiga olib keldi. Natijada, zararli chiqindi moddalar atmosfera havosi, suv havzalari, tuproq yuzasida to‘planib, ularni kuchli darajada ifloslanishiga, tirik organizmlarning tashqi muhit bilan bo‘lgan munosabatlarining buzilishiga, qolaversa, inson salomatligiga jiddiy salbiy ta‘sir etishga olib kelmoqda. Zero, bu muammolar insoniyatga keltirishi mumkin bo‘lgan yomon oqibatlari bo‘yicha yadro halokatidan ham kam emas...

“NKMK” AJda atrof-muhitga ta‘sir xavfi yuqori bo‘lgan korxonalarining atmosfera havosini ifloslantirish manbalaridan namunalarni olish va tahlil qilish bo‘yicha 2022-2026-yillarda bosqichma-bosqich avtomatik stansiyalar, shuningdek, ularga tutash hududlarda statsionar kuzatish punktlari bilan jihozlash bo‘yicha tarmoq jadvali tasdiqlanib, unga asosan 2023-yil 4-chorakda kombinat tarkibiy bo‘linmalarida 2 ta avtomatik stansiyalar o‘rnatish rejalashtirilgan.

Atmosfera zararli moddalar tashlanishini kamaytirish maqsadida, barcha korxonalarda tozalash samaradorligi ifloslantiruvchi moddalarni 95-99 foiz ushlab qoluvchi zamonaviy filtrlar o‘rnatilib, bu jarayonlar davom ettirilmoqda. Suv resurslarini muhofaza qilish va suvni tejash bo‘yicha texnologik jarayonda suvdan, aylanma suv ta‘minotidan, shaxta va yer osti suvlaridan foydalanish, tomchilatib sug‘orish tizimini joriy etish, texnologik uskunaning ishlashini optimallashtirish yo‘nalishida ham aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmog‘da.

“Navoiy kon metallurgiya kombinati” AJning 2022-yil 30-avgustda 540-son buyrug‘i va “Kon-metallurgiya sanoati sohasida ekologik talablarni va 19 banddan iborat atrof-muhit muhofazasi me‘yorlarini xalqaro standartlar asosida belgilash dasturi” qabul qilingan va ularning o‘z vaqtida ijro etilishi ta‘minlanmog‘da.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati korxonalarida bioxilma-xillikni muhofaza qilish bo‘yicha yashil hududlarni ko‘paytirish va atmosfera havosini yaxshilash maqsadida qator ishlar bajarilmog‘da. Barcha bo‘linmalarda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 2023-yil bahor va kuz muvsumida 434 ming tupdan ortiq daraxt ko‘chatlari o‘tqazildi. Janubiy kon boshqarmasi, Zarafshon qurilish boshqarmasi, Navoiy mashinasozlik zavodi, Markaziy moddiy-texnika bazasi, Tarmoqlar va yarim stansiyalar sexi, 3-avtokorxonada, Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi, O‘quv markazi, Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi, Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish boshqarmasi kabi bo‘linmalarda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida belgilangan topshiriqlar bajarildi.




Yer, suv, havo Yaratganing insoniyatga omonatidir. Biz bu omonatni qanday bo‘lsa, shundayligicha avaylab-asrashimiz, kelgusi avlodlarga yetkazishimiz kerak bo‘ladi.

– Yerdan ehtiyot bo‘ling. U sizning onangizdir. Har kim Yerning ustida biror yaxshi yoki yomon ish qilsa, ya‘ni yerga, suvga, havoga, umuman, tabiatga zarar yetkazsa, u albatta, buni Yaratganga xabar qiladi, -deyiladi hadisi shariflarda. Shunday ekan, aholining ekologik madaniyatini oshirishimiz, insonlarning tabiatga mehri, tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bo‘yicha mas‘uliyatini oshirishimiz zarurdir.

A.AXMEDOVA
suhbatlashdi.

NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI TOVAR BELGISI HAQIDA BILASIZMI?



Navoiy kon-metallurgiya kombinati o'z tovar belgisiga ega. U qanday ma'noni anglatadi? Uning izohi quyidagicha: "Belgida suv chiqayotgan tog' etagidagi uchta quduqning uslublangan shakli tasvirlangan. Suv oqimi quduqlarning bitmas-tuganmasligi ramzi".

Mazkur tovar belgisiga 2001-yil 19-fevralda O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasidan MGU 11129-raqamli guvohnoma olingan.

"NKMK" AJ Matbuot xizmati.

■ Madhiyam – g'ururim

Dilbar kuy-cho'shiqlarni tinglaganimizda qalbmiz orom olib, ruhimiz ko'tariladi. Ammo davlatimiz madhiyasi yangraganda vujudimizda titroq turib, har bir tomirimizda ko'tarinkilik, quvonch va hayajon, milliy g'urur jo'sh urishi ayni haqiqat.

OHANGLARI YURAKKA TUTASH

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov she'ri, O'zbekiston xalq artisti Mutal Burhonov musiqasi asosida yaratilgan madhiyamiz zamirida xalqimizning asrlar osha toblangan orzu-maqсадlari, kelajakka yorug' umidi va mustahkam ishonchi taronalari ifodalangan. Qutlug' taronaning har bir satri yuraklarga cho'g' soladi, dunyoda hech kimdan kam emasligimizni yodga solib turadi. Xalqimizni yagona maqsad yo'lida birlashtiradi, milliy g'ururni yuksaltiradi...

Bugungi kunda davlatimiz madhiyasining she'ri va musiqasi mualliflari xotirasini abadiylashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Qahramoni va xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligi mamlatimiz bo'ylab keng nishonlanib, kitoblari qayta nashr etildi, hayoti va ijodiy faoliyati haqida hujjatli film yaratilib, teatrlarda asarlari asosida spektakllar sahnalashtirildi.


Mutal Burhonovning ijodiy mehnati istiqbol yillarida munosib qadr topdi. U "Mehnat shuhrati", "Elyurt hurmati", "Buyuk xizmatlari uchun" ordenlari bilan mukofotlandi.

O'zbek musiqa madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ijodkor o'zidan beqiyos meros qoldirdi. Ko'pgina o'zbek kompozitorlari ijodining sehiri sir-sinoati va an'analari shu ustozdan o'rgan-gan. Millionlab insonlar qalbiga san'atga muhabbat, go'zalikka oshuftalik, odamiylik, yurtsevarlik, vatanparvarlik ushbu bastakor asarlari vositasida singan.

Mutal Burhonov asarlarining fazilatlaridan yana biri milliylikdir. Ustoz rus va Yevropa klassik musiqasi an'analari asosida teran milliy ruh bilan sug'orilgan asarlar yaratgan. Milliy kolorit faqat musiqiy til-da emas, balki asar mazmunida ham, obrazlarning xarakter mantiqida ham, xalq ruhining tasviri-da ham yorqin ko'rinadi. Asarlarda tafakkur va hissiyot musharak. Darhaqiqat, ustoz "Ko'ngil xazinasi" kitobida O'zbekiston Davlat madhiyasining yaratilishi haqida shunday yozadi: "Vatan tuyg'usi, Vatan madhiyasi... Bu tushunchalar musharak, bir-biroviga uyg'unlashib ketgan. Vatanni madh etish, uni ulug'lash har bir inson qalbidan o'rin olishi kerak... O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Davlat madhiyasi yangicha, istiqbol ruhida kun tartibiga qo'yildi. Muhokama va tortishuvlardan keyin, men yozgan madhiyani ham tanlovga kiritishdi. Mehnatlar zoye ketmadi. Musiqaning yarmiga kelganda olqishlar boshlandi..."

Ulug' bastakorning xotirasini abadiylashtirish borasida hali ko'plab ishlar amalga oshirilishi lozim. Ko'chalarga, musiqa va san'at maktablariga, oliy ta'lim muassasalariga fidoyi ijodkor nomining berilishi, uning pok ruhi oldida yuzoydinlik bo'lardi. Zotan, ustoz yaratgan nodir asarlar san'at namunasi sifatida yillar osha yashayveradi.

Mustafa BAFOYEV,
O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.



■ Ma'naviyat

O'tmish ko'zgusi asosida

KELAJAKKA NAZAR

"O'zbek xalqi barcha davrlarda ham ilgari yashab o'tganlarni xotirlash va ularning hayot tajribasidan saboq olishga alohida e'tibor qaratgan. Ana shu an'anani bugungi ijtimoiy-tarixiy talablarga moslab ijodiy davom ettirish zarur. Xotirasi uyg'og' millat o'tmish ko'zgusi asosida o'zining ertasini ko'ra biladi, bu ezgu tuyg'uni yoshlar ongiga singdirish eng ustuvor vazifalardan biridir. Xotirasi uyg'og' millatga o'tgan hayotidan, xatolaridan, og'ir va mashaqqatli kunlardan, tarix sinovlaridan zarur xulosa va saboqlar chiqara oladi...". Bu satrlar texnika fanlari doktori, professor Q.Sanaqulov va R. Ro'ziyevlarning "Vaqt – umuminsoniy qadriyat" kitobidan olindi.

"NKMK" AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktori Quvondiq Sanaqulovning tashabbusi bilan 2010-yilning 30-noyabrda "Navoiy kon-metallurgiya kombinati tarixi" muzeyini tashkil etish ishlariga asos solindi. Kombinat rahbarining sa'y-harakatlari bilan "Navoiy kon-metallurgiya kombinati tarixi" muzeyi 2013-yil 29-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muzey kombinat va uning tarkibiy bo'limlarining tashkil topishi va rivojlanishi tarixini o'rganish, O'zbekiston Respublikasining mustaqil taraqqiyoti davrida kombinat mehnat jamoasi erishgan yutuqlar, ijtimoiy sohalarda olib borilayotgan ishlar, vatanimiz iqtisodiyoti ravnagiga qo'shayotgan hissasini ko'rsatib berish, yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy g'oyalarga sadoqat, korxonada tarixiga hurmat, mehnatsevarlik, kasbga muhabbat, fidoyilik, faxriylik, mehnat mehnatini qadrlash, ularning hayot tajribasidan saboq olish ruhida tarbiyalash maqsadida barpo etilgan va shu kungacha belgilangan vazifalarni amalga oshirib, o'z faoliyatini davom ettirmoqda.

"NKMK tarixi" muzeyi bugungi kunda o'ziga xos ma'naviyat markaziga aylangan. Bu yerga Navoiy shahrida faoliyat yuritayotgan 2 ta davlat va 2 ta xususiy oliy ta'lim dargohlari talabalar, viloyatimiz markazi va Karmana, Navbahor, Konimex hamda Samarqand viloyati Paxtachitumani maktablari o'quvchilari tashrif buyurishib, NKMKning tashkil topishi tarixi hamda bugungi kunda bu korxonada amalga oshirilayotgan o'zgarishlar bilan yaqindan tanishishadi. "Metallurg" sanatoriy-profilaktoriysi dam oluvchilari ham doimiy mehmonlarimiz qatoridan joy olishgan.

Shuningdek, shahrimizga tashrif buyurgan chet ellik mehmonlar va hamkorlar, boshqa viloyatlarda istiqomat qilayotgan yurtdoshlarimiz, vatanimizning turli oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar, xorijiy davlatlarning O'zbekistondagi elchilari ham muzeyi-

mizga kelib turishadi.

O'tgan o'n yil davomida muzeyga 73 ming nafarga yaqin kishi tashrif buyurgan bo'lsa, ularning 95 foizini yoshlar tashkil qiladi.

Davlatimiz rahbarining izchil va chinakam xalqchil siyosati tufayli mamlatimizda inson qadri eng oliy qadriyat darajasiga ko'tarildi. Ajdodlarimiz azaldan qadr, obro' topish yo'lida tinimsiz izlanganlar, mashaqqat chekkanlar. Ular ilm-fan, ma'rif, madaniyat va ma'naviyat bobida tengsiz durdonalarni yaratishgan, o'z nomlarini tarix sahifalariga muhrlashgan.

Muzeyning "Ehtirov kitobi"da mustaqillik yillarida mehnatlari qadr topib, davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan NKMK ishchi-xodimlarining suratlari, qachon va qanday mukofot bilan taqdirlanganliklari haqida to'liq ma'lumot bor.

BIRINCHI HIKOYA

2023-yil fevral oyida muzeyga Zarafshon shahridan 2 nafar kishi tashrif buyurdi.

- Men Kasimiyev Saginbek, Markaziy kon boshqarmasining 7-gidrometallurgiya zavodida chilangar-ta'mirolovchi bo'lib ishlayman, – deya o'zini tanishtirdi ulardan biri va hikoyasini davom ettirib:

- Mening otam Kasimiyev Satigul, 1953-yil Qirg'izistonning Norin oblasti Jumgal rayoni Kizart aulida tug'ilganlar. 1975-yilda kasb-hunar bilim yurtini tamomlab, Zarafshon shahriga ishga kelganlar va 2-GMZning quyultirish sexida 2013-yilgacha nasos qurilmalari mashinisti bo'lib ishlaganlar. "Shaxtyorskaya slava", "Konchilik shuhrati" ko'krak nishonlari bilan taqdirlanganlar. Onam Reshida Useinovna, Samarqand viloyatining Jomboy tumanida tavallud topganlar. Ota-onam Zarafshonda tanishib, turmush qurishgan. 1984-yil yanvarda men dunyoga kelganman, ularning yolg'iz farzandlariman. Otam "Shu muzeyda mening qirg'iz qalpoqda tushgan suratim bo'lishi kerak, o'g'lim,



shuni rasmga tushirib olib kel", - deb, meni Navoiy shahriga jo'natdilar, - dedi.

Mehmonlar muzeyni tomosha qilishdi, o'zlarini qiziqitirgan savollarga javob olishdi. Satigul akaning qirg'iz qalpoq kiygan rasmi muzeydagi suratlar orasida bo'lmagani sababli, mustaqilligimizning 25 yilligi, NKMKning yubileyi, Zarafshon shahriga bag'ishlab chiqarilgan suratli kitoblarni birma-bir ko'rib chiqdik. Zarafshon shahridan 70 yoshli Satigul aka bir necha bor telefon qiladi.

Keksa inson umid bilan o'g'lini Navoiy shahriga yuborib, telefon orqali so'rab turgani, bu rasmning topilmagani meni noqulay ahvolga solgan edi. Zarafshon shahrida joylashgan "Qizilqum tarixi" muzeyi bilan bog'lanib, rasmi topishga harakat qilishimni aytdim. "Ehtirov kitobi"ni varaqlab ko'rdik. Shu kitobda Satigul akaning suratlari bor edi. Faqat qirg'iz qalpoqda emas-dilar. Yana taqdirlangan bir necha o'rtoqlari haqida ham ma'lumot bor ekan. Satigul akaning o'g'illari Saginbekning ko'zlaridan yosh dumaladi. Mening esa yelkamdan tog' qalaganday bo'ldi, ko'nglim yorishdi. Kasimiyev Satigul akaning mehnatlari qadrlanib, O'zbekiston Respublikasi Faxriy yorlig'i bilan taqdirlangan ekanlar. Yaxshiyamki muzeyda "Ehtirov kitobi" tashkil etilgan ekan. Telefon orqali aloqada bo'lib turgan Kasimiyev Satigul aka va u kishining turmush o'rtoqlari Reshida opa

juda xursand bo'ldilar. Yaqinda Saginbek bilan telefon orqali bog'langanimda, shu voqeadan so'ng oradan 3 oy o'tgach, 2023-yil 26-may kuni Kasimiyev Satigul aka vafot etganlaridan xabar topdim. Xafa bo'ldim, nailoq, bandalik. Biroq, bir tuyg'u tasmin berar edi. U ham bo'lsa, Satigul akaning o'g'illari otasining so'nggi iltimoslaridan birini bajara olganiga yordam qila olganimiz.

IKKINCHI HIKOYA

2023-yilning 18-aprel kuni muzeyga "Metallurg" sanatoriy-profilaktoriy-sidan bir guruh dam oluvchilar tashrif buyurishib, 65 yillik tarixga ega kombinatning kechagi va bugungi kuni haqida tasavvur hosil qilishdi. Mehmonlar ketish oldidan rasmga tushdilar. Mehmonlardan biri – Hikmatoy opa "Ehtirov kitobi"ni ko'rishga ruxsat so'radilar. Kitobning sahifalaridan birida o'zlariga qadrdon bo'lgan sismo – turmush o'rtoqlarining suratini topdilar va ko'zlariga yosh oldilar. Hikmatoy opa bilan birga dam olayotganlar u kishidan turmush o'rtoqlari haqida so'zlab berishlarini iltimos qilishdi.

Muzaffar aka Vafoyev 1953-yilda Buxoro viloyatining Toshroboq qishlog'ida ko'p bolali oilada tavallud topgan edilar. Ota-onalari ertadan kechgacha jamoa xo'jaligida ishlashar, bolalar esa ularga xo'jalik ishlarida yordam berardilar. Muzaffar aka 5 yoshga to'lganda otasi dunyodan o'tadi, 6-sinfdan

boshlab, oilaga yordam berish uchun darslardan keyin dalada ishlaganlar. Maktabni tamomlagandan so'ng, oilaga yordam berish maqsadida akalari-niing maslahati bilan haydovchilik kursini tamomlaganlar. Harbiy xizmatdan qaytgach, 1975-yil Zarafshon shahriga kelib, MKBning 7-avtobazasida "Gaz-51" rusumli avtotransport haydovchisi bo'lib ish boshlaydilar.

1987-yilda Navoiy sanoat texnikumining Zarafshon filiali kechki bo'limiga o'qishga kirganlar. Ishni ham, o'qishni ham baravariga olib borishda u kishiga oila a'zolari sharoit yaratib berishga harakat qilishar edi. Texnikumni tugatgach, Muzaffar akani avtobazaning muhandis-mexanikligiga, keyinchalik 1-avtokolonna boshliqligi lavozimiga o'tkazishadi. Muzaffar aka o'z kasbining fidoiysi, ko'p yillik mehnat tajribasiga ega ekanligi hisobga olinib, 1995-yil avtobazaning foydalanish bo'limi boshlig'i lavozimiga tayinlanadi.

M.Vafoyev 1997-2001-yillarda Toshkent avtomobil yo'llari instituti sirtqi bo'limining "Yuklarni tashishni va transportni boshqarishni tashkil etish" yo'nalishida tahsil olgan. U kishi NKMK-da 38 yillik faoliyati davomida ko'plab yoshlarga ustozlik qilganlar. Oila boshlig'i sifatida to'rt nafar farzandni tarbiyalab, o'qitib, voyaga yetkazganlar.

Ko'p yillik halol mehnati uchun Muzaffar aka Vafoyev bir necha bor NKMKning Faxriy yo'riqlari, "Mehmada o'rnatilgan xizmatlari uchun" medali, "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoni, O'zbekiston Respublikasi Faxriy yorlig'i bilan taqdirlanganlar. 2013-yilda u kishi bu yorug' olamni tark etdilar.

Opa ko'zlarida yosh bilan hikoyalarni tugatdilar. Bir oz sukunat bo'ldi. "Kombinatimizga rahmat, mehnatkashlarining mehnatini qadrlagan kombinatimizga tashakkur!", - dedilar Hikmatoy opa.

Darhaqiqat, har bir inson qadr istaydi, qilgan mehnatiga javoban. "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ da faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlarimiz fidokorona mehnatlari uchun munosib rag'batlantirilishadi. Darvoqe, kombinatning 65 yillik shodiyonalari munosabati bilan ham bir guruh hamkasblarimiz davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'lishdi.

Dilrabo RAHMATOVA,
"NKMK tarixi" muzeyi mudiri.

■ "101" xabar qiladi

OYLIK UYUSHQOQLIK BILAN O'TMOQDA

Qizilqum sahrosi hududidagi yer osti boyliklarini qazib chiqarish, belgilangan manzillarga yetkazib berish va konchilik sohasiga oid boshqa ishlarni bajarishda ko'plab og'ir yuk tashuvchi texnikalardan foydalaniladi. Ulkan texnika vositalari uchun zarur ehtiyot qismlar "Navoiy mashinasozlik zavodi" ishlab chiqarish birlashmasida tayyorlanadi. Birlashma jamoasi zimmasidagi vazifani doimo bajarib kelmoqda. Korxonada yong'in xavfsizligini ta'minlash hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasida ham qator ishlar olib borilmoqda. Bu ishlar markazimiz va uning quyi tizimlari xodimlari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, joriy yilning 15-noyabridan 15-dekabr gacha respublikamiz hududida "Yong'in xavfsizligi oyligi" o'tkazilmoqda. Oyligni muvaffaqiyatli o'tkazish doirasida Navoiy kon-metallurgiya kombinatining barcha bo'linmalarida bo'lgan

ni singari Navoiy mashinasozlik zavodida ham yong'in garga qarshi profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda. Muhofazaga olingan obyektlarda yong'in va favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ishchi-xizmatchilarni ogohlikka davlat etish, targ'ibot-tas-

hviqot ishlarini kuchaytirish Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi xodimlarining doimiy ishiga aylandi.

Doimiy mashinasozlik zavodi majlis zalida korxonada rahbarlari ishtirokida o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishda Yong'in xavfsizligi oyligini yuqori darajada o'tkazish bilan bog'liq tadbirlar belgilab olindi va ayni kunlarda bajarilmoqda. Korxonada ishchi-xizmatchilari va sohaga mas'ul-lar ishtirokida o'tkazilgan tadbirda ishchi-xodimlar is gazidan zaharlanishining oldini olish masalasi muhokama markazida bo'ldi. Respublikamiz hududida sodir bo'layotgan ko'ngilsiz holatlar atroflicha tahlil etilib, bunday holatlar ko'pincha fuqarolar xonadon va korxonalarida oddiygina xavfsizlik qoidalariga rioya qilmayotganliklari oqibatida ro'y berayotganligi ta'kidlab o'tildi.

Korxonada birlamchi yong'in o'chirgichlarning sozligi, favqulodda holat sodir bo'lganda nimalarga e'tibor berish va qay tartibda harakat qilish zarurligi tushuntirildi.

Tadbirda ishtirokchilarning sohaga doir savollari-ga mutaxassislar tomonidan javoblar berildi. Shundan so'ng yong'in o'chirish texnikalarining ko'rgazmali namoyishi tashkil etildi. Tadbir ishtirokchilariga yong'in va is gazidan ogoh etish aks ettirilgan eslatma va flayyerlar tarqatildi.

Ma'rufjon XAYITOV,
"NKMK" AJ va "Navoiyuran" DK
Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi guruh boshlig'i, serjant.
Hayotjon RAZZOQOV,
inspektor, kapitan.

